

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ERGASHEV MIRSAID BAXTIYOR O‘G‘LI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUHABBAT IZHORINING
KONSEPTUAL VA PRAGMATIK MAZMUNI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li

Ingiliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorining konseptual va pragmatik
mazmuni 3

Эргашев Мирсаид Бахтиёр угли

Концептуальное и прагматическое содержание признания в любви в
английском и узбекском языках 27

Ergashev Mirsaid Baxtiyor ogli

The conceptual and pragmatic content of love declaration in English and Uzbek. 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ERGASHEV MIRSAID BAXTIYOR O‘G‘LI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUHABBAT IZHORINING
KONSEPTUAL VA PRAGMATIK MAZMUNI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.3.PhD/Fil5165 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNyet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi, ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "12" iyun soat. 10⁰⁰ da majlisida bo'ladi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (63183-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "23" may kuni tarqatildi.
(2026-yil "23" may da № 39 -raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kofibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy jahon tilshunosligida inson ichki hissiy kechinmalarining turli lisoniy sathlardagi tadqiqi, ularning chog‘ishtirma aspektidagi tahlili ko‘plab soha vakillarining e‘tiborini jalb qilib qilmoqda. Mazkur turdagi izlanishlar pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika kabi fanlar doirasida amalga oshirilmoqda. Inson his-tuyg‘ulari bevosita til orqali voqelanadi hamda his-tuyg‘ularining nutq birliklari orqali ifoda etilishi ularning mazmun mohiyatini aniqlashda antropotsentrik va empirik nuqtayi nazardan keng qamrovli chog‘ishtirma tahlilni talab etmoqda. Shu sabab, his-tuyg‘ularni ifoda etishda foydalaniladigan emotiv, ekspressiv, verbal va noverbal lingvistik vositalarni chog‘ishtirish orqali umumiy va milliy lingvomadaniy tarkibni belgilash dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida shaxslararo munosabatlarning milliy-madaniy xususiyatlari, emotsional-ekspressiv ifodasining pragmatik mazmuni, konseptuallashtirish xususiyatlarini empirik jihatdan qiyosiy tadqiq etish masalasi nazariy va amaliy tilshunoslik uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Ayniqsa turli tizimli til sohiblarining tafakkurida muhabbatni ifodalovchi lisoniy birliklarning nutqda ifodalanishini chog‘ishtirma tarzda o‘rganish turli tillar tizimida ushbu birliklarning sinxron va diaxron tarkibini belgilashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, muhabbat izhorida faollashadigan lisoniy vositalarni qiyosiy jihatdan o‘rganish zarurati paydo bo‘lgan. Inson tuyg‘ulariga xos bo‘lgan muhabbat izhorini ifoda qiluvchi leksik birliklarni qiyosiy tahlil qilish, uning nutqdagi pragmatik vazifalarini aniqlash, lingvomadaniy xususiyatlarini chog‘ishtirish, izhorni kommunikativ jarayonda konseptual va pragmatik jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida tadqiqotchilar oldiga qator vazifalar qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo‘limizdan keladi. Biz ma’rifat borasida, ta’bir joiz bo‘lsa, «iligi to‘q» xalqimiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor”¹. Xususan, mamlakatimizda xorijiy tillarning nazariy asoslari tadqiqi hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini uzluksiz ravishda til ta’limi amaliyotiga tatbiq qilish masalasi tilshunoslar uchun muhim sanaladi. Binobarin, ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorini konseptual va pragmatik jihatdan qiyosiy tadqiq etish, har ikki tilning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish, madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etish tarjimada emotsional-ekspressiv ma’nolarni to‘g‘ri yetkazishda yuzaga keladigan masalalarni hal etishga yordam beradi.

Taqdim etilayotgan mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B. 92.

2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, Farmonlari va 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Emotiv ifodaning konseptual va pragmatik jihatdan turli tillar tizimidagi qiyosiy tadqiqi tilshunoslar diqqatini doimo jalb qilib kelgan. Jumladan, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik hamda pragmalingvistika sohasida insonning ichki hissiy olamini bilish masalalari, shu jumladan, turli lisoniy madaniyatlarga xos bo‘lgan emotsiyalarning qiyosiy tadqiqi N.Dorofeyeva, S.Vorkachev, S.Zaykina, I.Volostnix, V.Kalinina, E.Butenko, L.Grigorova, Y.Ilin, V.Karasik, N.Krasavskiy, Y.Kozlova, Y.Krilov, L.Kuznesova² kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

Turli tillar doirasida muhabbat konsepti va uning lingvistik tasviri J. Falkovski, S.Reno, J.Forsiy, D.Andersen, I.Volter, A.Irilova V.Muratova S.Vorkachev B.Dashiyeva L.Vilms Y.Matveyeva, S.Fomina, I.Ivanova³ kabi bir qator xorijiy

²Дорофеева Н. В. Удивление как эмоциональный концепт (на материале русского и английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар: КГТУ, 2002. – 214 с.; Воркачев С. Г. Культурный концепт и значение. – Москва: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 236 с.; Зайкина С. В. Эмоциональный концепт «Страх» в английской и русской лингвокультурах (сопоставительный аспект): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 188 с.; Волостных И. А. Эмоциональные концепты «страх» и «печаль» в русской и французской языковых картинах мира (лингвокультурологический аспект): Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов: ТГТУ, 2007. – 137 с.; Калинина В. В. Эмоционально-этический концепт SHAME и его когнитивно-дискурсивный потенциал: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2009. – 166 с.; Бутенко Е.Ю. Концептуализация понятия «страх» в немецкой и русской лингвокультурах: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь: ТГУ, 2006. – 198 с.; Григорова Л.Э. Концепт CURIOSITY в английской языковой картине мира: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск: ИГЛУ, 2013. – 168 с.; Ильин Е.П. Эмоции и чувства. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 783 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 335 с.; Красавский Н. А. Эмоциональные концепты в немецких и русских лингвокультурах. – Волгоград: Перемена, 2001. – 495 с.; Козлова Е.А. Метонимия как концептуальная основа функциональной категоризации английского глагола: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2001. – 154 с.; Крылов Ю. В. Эмотивный концепт «Злость» в русской языковой картине мира: идентификация и разграничение ментальных и языковых структур. – Новосибирск: НГПУ, 2007. – 186 с.; Кузнецова Л.Э. Любовь как лингвокультурный эмоциональный концепт: ассоциативный и гендерный аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар: КГТУ, 2005. – 206 с.

³Falkowski J. J. The development of the concept of love: PhD dissertations. -Massachusetts, 1975. – 216 p.; Reno S. T. Amorous aesthetics: the concept of love in British romantic poetry and poetics: PhD dissertations. -Ohio, 2011. – 295 p.; Forcey J. G. Love as union: a defense of the union theory of love”: PhD dissertations. -Texas, 2017. – 193 p.; Andersen D. Concepts of love and some implications for education: PhD dissertations.- Ontario, 1998. – 192 p.;

tilshunoslarning ishlarida tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunosligida “muhabbat” mavzusi va unga aloqador bo‘lgan konseptlar mavzusiga D.Buzrukova, A.Sadullayeva, M.Tadjiyeva, N.Ibragimova, T.Mardiyev, S.Karimova, B.Abdurazzoqov, L.Doliyeva, D.Narzullayevalar⁴ning ishlarida murojaat qilingan.

Yuqorida qayd etilgan tilshunoslar tomonidan “muhabbat” mavzusi qiyosiy, lingvokulturologik, leksikografik va stilistik jihatdan o‘rganilganligiga qaramay, uning muhabbat izhori (nutqiy hodisa) sifatida lisoniy voqelanishi va pragmatik jihatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasining ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq “Xorijiy tillarni o‘qitishning lingvometodik tamoyillari va zamonaviy lingvistik tadqiqotlar” nomli mavzu doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi:

Ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhori ifodasining kommunikativ, konseptual va pragmatik mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillarida emotiv va ekspressiv vositalarning kognitiv asoslari hamda konseptuallashish jarayonini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy birliklarni tavsiflash hamda muhabbat konseptining badiiy matnlarda, nutqda voqelanishini chog‘ishtirma aspektida ochib berish;

Walter I. R. Love as Dialogue: Finding Human Connection In Conversation: PhD dissertations. -Nova, 2017. – 112 p.; Ирилова А.Д. Вербализация концепта «Любовь» в произведениях У.С. Моэма и их переводах: когнитивно-прагматический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2013. –24 с.; Муратова В. Э. Бинарные концепты «любовь/love» и «ненависть/hate (hatred)» в английском и русском песенных дискурсах: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2010. – 112 с.; Воркачев С.Г. Концепт любви в русском языковом сознании //Коммуникативные исследования 2003: Современная антология / Под ред. проф. О.А. Леонтович. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 189-207; Дашиева Б.В. Концепт образа мира в языковом сознании русских, бурят и англичан: национально-культурный аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1999. – 24 с.; Вильмс Л. Е. Лингвокультурологическая специфика понятия «любовь» (на материале немецкого и русского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 24 с.; Матвеева Е.И. Ситуация признания в любви и ее дискурсивная реализация в английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2010. – 210 с.; Фомина С.Д. Концепт “Любовь” в идеосфере Л.Н. Толстого: на материале публицистических произведений, писем, дневников: Дисс. ... канд. филол. наук. -Елец, 2009. – 185 с.; Иванова И.А. Концепт любовь и его концептосфера в истории русского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. - Москва, 2006. – 201 с. ⁴Buzrukova D.M. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahlili: Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Farg‘ona, 2024. –24 b.; Sadullaeva A.N. “Love/muhabbat” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Nukus, 2024. – 24 b.; Tadjiyeva M.F. Ingliz va o‘zbek tillarida Love/muhabbat konseptining representatsiyasi: Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Termiz, 2024. – 26 b.; Ibragimova N.I. “Yurak/HEART” konseptual tushunchasining paremiologik va frazeologik matnlarda faollashuvi (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida): Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Samarqand, 2024. – 24 b.; Mardiyev T.K. Ingliz va o‘zbek tillarida inson tuyg‘ulari ifodalanishining konseptual tahlili: Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Samarqand, 2024. –22 b.; Karimova S.S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida): Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Samarqand, 2023. – 24 b.; Abdurazzoqov B.S. Ingliz va o‘zbek tillarida emotsiya konseptlarining verballashuvi: Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Samarqand, 2024. – 24 b.; Doliyeva L.B. Emotsional aspektida ruhiyatni tasvirlovchi frazeologizmlarning lingvopsixologik tavsifi: Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Samarqand, 2024. – 24 b.; Narzullaeva D.S. Badiiy diskursda insonning ruhiy-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv xususiyatlari: Filol. fan. fals. d-ri (PhD)...diss.avtoref. – Samarqand, 2024. – 24 b.

turli tizimli tillarda muhabbat izhorini shakllantiruvchi verbal va noverbal vositalarning konseptuallashuvi, stilistik bo‘yoqdorligini yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash;

qiyoslanayotgan tillardagi muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvomadaniy omillarga va kommunikativ kontekstda pragmatik vazifalarga bog‘liqligini dalillashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy vositalarning verbal va noverbal shakllari tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorlarining konseptual va pragmatik mohiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tasvirlash, qiyosiy taqqoslash, konseptual tahlil, pragmatik tahlil, empirik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida emotiv va ekspressiv vositalarning kognitiv asoslari (leksik konsept, ekspressivlik) hamda konseptuallashish jarayoni (ekspressiv nutqiy aktlar) aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy vositalar (leksik birliklar, frazeologik birliklar, idiomalar, paremiologik birliklar) tavsiflangan hamda muhabbat konseptining badiiy matnlarda va nutqda voqelanishi chog‘ishtirma aspektda ochib berilgan;

turli tizimli tillarda muhabbat izhorini shakllantiruvchi verbal (his-hayajon gaplar, tuyg‘uga asoslangan ifodalar, sifatlovchi ifodalar, ramziy ifodalar) va noverbal (imo-ishora, masofa saqlash, yuz ifodasi, nigoh, sovg‘a, turli ramziy xatti-harakatlar) vositalarning pragmatik mazmunga aloqadorligi isbotlangan;

qiyoslanayotgan tillardagi muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvomadaniy omillarga (leksik va frazeologik birliklar, ekspressiv nutqiy aktlar, emotsional-baholovchi birliklar, ramziy predmetlar va madaniy stereotiplar, kommunikativ qoidalar va kontekstual me‘yorlar) bog‘liqligi va kommunikativ kontekstda pragmatik vazifalarga (muhabbat izhorini rejalashtirish, izhor strategiyalari, nutqiy aktlar, emotsional va ekspressiv vositalar) bog‘liqligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalovchi so‘zlar, frazeologik birliklar, paremiologik birliklar hamda ramziy ifodalarning bazasi shakllantirildi. Ushbu birliklar semantik, stilistik, pragmatik jihatdan tasniflanib, lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz badiiy asarlaridan 440ta hamda o‘zbek badiiy asarlaridan 421ta muhabbat izhorlari ifodalangan misollar tahlilga tortilgan. Natijada, qiyoslanayotgan tillarda muhabbat izhorini shakllantiruvchi lisoniy vositalarning qo‘llanilishi va ularning muloqot jarayonidagi pragmatik vazifalari aniqlangan;

tadqiqot jarayonida har ikki til sohiblari ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnomasida empirik faktik materiallar to‘plangan. Mazkur materiallar asosida muhabbat

izhorining turli madaniy-kommunikativ kontekstlarda qo‘llanishi pragmatik va konseptual jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy tilshunoslikda qo‘llanilgan yondashuvlar va usullar, ishda qabul qilingan umumiy ilmiy nazariyalar va umume’tirof etilgan lingvistik nazariyalar, shuningdek, dissertatsiyaning nazariy xulosalari shakllantirilgan katta hajmdagi tahlil qilingan empirik va faktologik materiallar, tadqiqotning asosiy natijalarini nashr etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar to‘plamlarida chop etilgan maqolalar, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat muassasalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorining konseptual va pragmatik mazmuni ingliz va o‘zbek badiiy matnlari materiallari hamda empirik tadqiqot orqali to‘plangan respondentlarning fikr-mulohazalari asosida qiyosiy tahlil qilinib, qiyoslanayotgan tillarda muhabbat izhorining lingvokognitiv, lingvopragmatik hamda lingvomadaniy tabiati ochib berilgan. Ushbu tadqiqotda erishilgan xulosalar ishning samaradorligi va istiqbolidan dalolat beradi hamda zamonaviy tilshunoslik fanining nazariy asoslarini boyitishga hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmalingvistika kabi tilshunoslik sohalari doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar yo‘nalishini kengaytirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar va materiallardan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv va ilmiy jarayonda, xususan, umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi fan sohalarida ma’ruza va seminarlar tayyorlash va tashkil etishda, shuningdek, turli konseptologik, frazeologik hamda pragmatik sohaga oid o‘quv majmualar va ma’ruzalar matni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy ishda ingliz va o‘zbek tillariga xos bo‘lgan muhabbat izhori bilan bog‘liq lisoniy birliklar va ularning har ikki tilda ifodalanishi misollar yordamida solishtirilgan natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida emotiv va ekspressiv vositalarning kognitiv asoslari (leksik konsept, ekspressivlik) hamda konseptuallashish jarayoni (ekspressiv nutqiy aktlar) aniqlanganligi borasidagi ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2026–yil 5-yanvardagi 6/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha ishtirokchilari tilning emotiv va ekspressiv xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lishgan;

ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy birliklar (leksik birliklar, frazeologik birliklar, idiomalar, paremiologik birliklar) tavsiflangan hamda

muhabbat konsepti badiiy matnlarda voqelanishi chogʻishtirma aspektida ochib berilgan ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetida 2020–2022-yillarga moʻljallangan Britaniya Kengashi (British Council) hamkorligida amalga oshirilgan 1683580-raqamli “English as a school subject” nomli xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026–yil 6-yanvardagi 11-25/2-son maʼlumotnomasi). Natijada, muhabbat konseptining badiiy matnlarda ifodalanish usullari hamda uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish yuzasidan amaliy mashgʻulotlar tashkil etishda foydalanilgan;

turli tizimli tillarda muhabbat izhorini shakllantiruvchi verbal (his-hayajon gaplar, tuygʻuga asoslangan ifodalar, sifatlovchi ifodalar, ramziy ifodalar) va noverbal (imo-ishora, masofa saqlash, yuz ifodasi, nigoh, sovgʻa, turli ramziy xatti-harakatlar) vositalarning pragmatik mazmun bilan uzviy bogʻliqligi haqidagi ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2026–yil 5-yanvardagi 03/2-son maʼlumotnomasi). Natijada, ilmiy loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlar yangi nazariy xulosalar va qoʻshimcha lingvomadaniy materiallar bilan boyitilgan;

qiyoslanayotgan tillardagi muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvomadaniy omillarga (leksik va frazeologik birliklar, ekspressiv nutqiy aktlar, emotsional-baholovchi birliklar, ramziy predmetlar va madaniy stereotiplar, kommunikativ qoidalar va kontekstual meʼyorlar) bogʻliqligi va kommunikativ kontekstda pragmatik vazifalarga (muhabbat izhorini rejalashtirish, izhor strategiyalari, nutqiy aktlar, emotsional va ekspressiv vositalar) bogʻliqligi dalillanganligiga doir ilmiy xulosalardan “Oʻzbekiston Milliy Axborot agentligi”da 2025-yil 1-yanvar kuni efirga chiqqan “Akmal Nur: sanʼatda ham raqobat kerak” nomli koʻrsatuvining navbatdagi soni ssenariyasini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy Axborot agentligining 2026-yil 6-yanvardagi 01-23/12 sonli maʼlumotnomasi). Natijada, tomoshabinlarning badiiy tarjima planidagi zamonaviy yoʻnalishlar toʻgʻrisida bilimlar fondini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop erish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, asosiy matni 145 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **“Kirish”** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyamizning birinchi bobi **“Konseptning ekspressiv mazmuni va pragmatik xususiyatlari”** deb nomlangan. Ushbu bobda konsept va konseptning empirik mohiyati, ekspressiv vositalarning kognitiv xususiyatlari hamda ekspressiv nutqiy aktlar borasidagi mavjud tadqiqotlar, ilmiy fikr-mulohazalar o‘rganilgan.

S.Askoldov konseptning lisoniy maqomi borasida o‘z nazariy qarashlarini **“Концепт и слово”** (So‘z va konsept) maqolasida ochib berishga harakat qilgan⁵. Olim ushbu maqolada kontseptni fikrlash jarayonida bir xil turda shakllangan predmetlar, voqeliklar, tushunchalarni birlashtiruvchi tafakkurdagi bilim sifatida baholaydi.

Ilmiy nazariyalarga ko‘ra, konsept insonning dunyo haqidagi bilimlari, tajribasi va bilish faoliyati natijalarini aks ettiruvchi ko‘p o‘lchovli aqliy konstruksiyadir. V.Karasik⁶ konseptni murakkab obrazli hodisa deb baholab, uning tushunchadan kengroq ekanligini ta‘kidlaydi. Y.Kubryakova⁷ konseptni insonning bilish tajribasi, xotira va mental leksikonining mazmuniy birligi sifatida izohlaydi. K.Braun va J.Millerlar⁸ esa konseptni inson tomonidan atrof-muhit haqidagi ma‘lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash asosida shakllanadigan tasavvur deb hisoblaydi. Konsept tadqiqi bo‘yicha o‘zbek lingvistik olamida ham turli qarashlar mavjud. Masalan, Sh.Safarov⁹ konseptni tafakkur birligi sifatida talqin qilib, uning shakllanishi tushuncha, obraz va lisoniy ma‘no asosida yuzaga kelishini ta‘kidlaydi. O‘.Yusupov¹⁰ esa konseptni inson ongidagi bilimlar, obrazlar va baholashlar yig‘indisi deb izohlaydi hamda uni aysbergga qiyoslaydi. D.Ashurova¹¹ konseptni mantiqiy va milliy xususiyatga ega hodisa sifatida baholab, uning ifodasi til vositalari orqali namoyon bo‘lishini qayd etadi.

Keltirilgan nazariy fikrlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, **“konsept”** atamasi turli tilshunoslar tomonidan turlicha ta‘riflangan bo‘lsa-da, ushbu nazariy qarashlarni birlashtiruvchi asosiy jihat konseptning inson tafakkurida shakllanadigan, olam

⁵Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста. Антология. – Москва: Academia, 1997. – С. 267-279.

⁶ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва: Гнозис, 2004. – С.110.

⁷ Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва: Изд-во МГУ, 1996. – С. 90.

⁸ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – P. 95.

⁹ Сафаров. Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” нашриёти 2006. – Б. 13.

¹⁰Юсупов Ў. Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурега атамалари хусусида.//Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларда: Республика илмий-амалий конференцияси мақолалари тўплами. – Тошкент: “ЎзДЖТУ”, 2011. – Б. 53.

¹¹Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б. 11-12.

haqidagi bilim va tajriba hamda madaniy xotira bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy faoliyatga xos birlik ekanligidir. Bizningcha, yuqoridagi yondashuvlarning har biri konseptning ma‘lum bir qirrasini namoyon etadi. Ushbu tadqiqotda konsept inson tafakkurining mahsuli yoki til birligi sifatida tadqiq etilishi bilan bir qatorda milliy-madaniy tajriba, emotsional baholash va kommunikativ ehtiyojlar asosida shakllanadigan murakkab kognitiv-pragmatik birlik sifatida talqin qilinadi. Muhabbat izhori kabi kommunikativ hodisalarda esa konsept nafaqat bilim va tasavvurlarni, balki his-tuyg‘ular, qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va pragmatik maqsadlarni ham o‘zida mujassam etadi.

Tilshunoslikda ekspressivlik atamasi lotin tilidagi “expressio” so‘zidan olingan bo‘lib, “ifoda” deb tarjima qilinadi¹². “Ekspressiya” tushunchasi ilmiy izlanishlarda qadim davrlardan beri o‘z aksini topib kelmoqda. “Ifodalilik” tushunchasi shaxsning fikr va his-tuyg‘ulari alohida ajratilgan xolda ifodalash talqinida ko‘pincha “ekspressivlik” tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Tilshunoslikka oid izohli lug‘atlarda ekspressivlikka quyidagicha ta‘rif beriladi: til ekspressiv vazifasining turli shakllar bilan namoyon bo‘lishi, namoyon bo‘lgan holati. Ekspressiya esa nutqning ta’sirchanlik xususiyati. Bu xususiyat leksik, grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi¹³. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ekspressiya va ekspressivlik ikki xil tushuncha hisoblanadi. Ekspressiya shaxs nutqining ta’sirchanlik xususiyatini bildiradi, ekspressivlik esa ekspressiv vositalar orqali yuzaga keladi.

Tilning ekspressiv vositalari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlarni tahlil etar ekanmiz xorij va o‘zbek tilshunoslarining ilgari surgan nazariyalarida asosan tilning ekspressiv vositalari sifatida fonetik, fonetik-fonologik, grafik, grammatik, morfologik, leksik, leksik-frazeologik, stilistik yoki sintaktik turlarini uchratish mumkin.

G.Berestnevning e’tirof etishicha, emotiv qurilmani ifodalash tizimida asosiy o‘rinni leksik ekspressiv vositalar egallaydi. Emotsional holatni leksik vositalar orqali ifodalash nominatsiya xarakteriga ko‘ra a) bevosita / bilvosita va b) aniq / noaniq kabi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Olimning fikricha, konnotatsiya orqali ta‘minlangan leksik birlik ma‘nosidagi signifikativ komponent semalari bilan emotsional hissiy holat (sezgi yoki emotsiya) mazmunini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash bevosita aniq nominatsiyaning asosiy mezonini bo‘ladi¹⁴. Avstriyalik lingvist B.Toshovich ekspressiv vositalarni yetti toifaga ajratib chiqadi ular:¹⁵ grafik, fonetik-fonologik, so‘z yasalishi, leksik, frazeologik, grammatik (morfologik va sintaktik), matn.

O‘zbek tilida ham boshqa tillarda bo‘lgani kabi ekspressivlik-emotsionallikni hosil qiluvchi vositalar, foydalanish usullari mavjud. Ularni til hodisalari bo‘yicha

¹² <https://rus-lingvist-dict.slovaronline.com>

¹³ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.164.

¹⁴ Берестнев Г.И. Самосознание личности в аспекте языка // Вопросы языкознания. – Москва, 2001. – № 1. – С. 60.

¹⁵ Тошович Б. Экспрессивный синтаксис глагола русского и сербского/хорватского языков. – Москва: Языки славянской культуры, 2006. – С. 356.

turlarga ajratgan o‘zbek tilshunosi A. Abdullayev umumiy tarzda “usul” deb atagan. Olim fonetik hodisalarda bo‘ladigan ekspressivlik-emotsionallikni fonetik usul, so‘z formalarida ifodalanishini esa morfologik usul deb ta’kidlaydi.¹⁶ Xuddi shuningdek, leksik-frazeologik va sintaktik usullarini ham o‘z ilmiy izlanishlarida e’tirof etadi. Olimning ilmiy tadqiqotini tahlil qilish mobaynida fonetik usulda ekspressiv ifodalashning ayrim ko‘rinishlari keltirilganligining guvohi bo‘ldik. Bular kuchaytirish, kuchsizlantirishdan tashqari, erkalash, suyish kabi ma’nolar ifodalanishi e’tirof etilgan. Bu ma’nolar tovush o‘zgarishi (ko‘jim-qo‘zim), tovush o‘zgarishi va unlini cho‘zish (serrayy-eb turmoq), tovush orttirish (Barnosh, Shahlosh - kishining ismi) va so‘zni bo‘g‘inlarga ajratib, har bir bo‘g‘inni kuchli talaffuz qilish (ayt-may-man!) kabi usullar bilan yuzaga keltiriladi¹⁷.

Muhabbat izhori inson tafakkuri va hissiy kechinmalari bilan bog‘liq murakkab mental hodisa hisoblanadi. U nutqiy faoliyat jarayonida ma’lum konseptlarning til orqali voqelanishi asosida yuzaga keladi. Shu bois ekspressiv nutqiy aktlar oddiy axborot uzatish vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda, insonning ichki hissiy holati va munosabatlarini ifodalovchi konseptual birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, “Men seni sog‘indim”, “Rahmat, jonim” kabi birliklar muayyan konseptlarning lisoniy ifodasini aks ettiradi. Y. Apresyan ekspressiv nutqiy aktlar sinfiga *omad tilash* nutqiy harakatini kiritadi. V. Bogdanov o‘z asarlarida dixotomiya asosida qurilgan illokatsion harakatlar taksonomiyasini taklif qiladi. Olimning tasnifiga ko‘ra, ekspressiv nutqiy aktlar rasmiy bo‘lmagan, takrorlanmaydigan, “psixologik ekspressiv” nutqiy aktlarining sinfini tashkil qiladi hamda *rahmat, uzr, hamdardlik, tabrik, salom, maqtov, shikoyat, nola* kabilarni o‘z ichiga oladi¹⁸. Demak, olim o‘z nazariy qarashlarida boshqa olimlarning nuqtayi nazaridan farqli ravishda ekspressiv nutq aktlarni psixologik ekspressivlar deb ataydi. M. Fedosyuk etiket janrlari bo‘lgan *tabrik, minnatdorchilik, tilak* kabi nutqiy aktlarni emotivlar sinfiga kiritishni taklif etadi. Olimning nuqtayi nazaricha, ular adresat emotsional holatini ifodalashga yoki vaziyatning yaxshilanishiga mo‘ljallangan bo‘ladi.¹⁹

O‘zbek tilshunosligida ekspressiv nutqiy akt tushunchasini Sh. Safarov, M. Hakimov, A. Hojiyev, A. Ko‘chiboyev kabi olimlarning asarlarida uchratishimiz mumkin. Xususan, professor Sh. Safarovning “Tilshunoslik terminlar lug‘ati”da “ekspressiv nutqiy aktlar”ga shunday ta’rif beriladi: Propozitsiya mazmunida ifoda topgan ruhiy holatni ma’lum qiluvchi nutqiy aktlardir. Ushbu nutqiy aktlar bajarilishida so‘zlovchi hech narsani talab qilmaydi va javob harakatini kutmasdan, balki o‘z hissiyoti munosabatini ma’lum qiladi. Masalan, “*Meni kechiring*”, “*Uzr so‘rayman*”, “*Minnatdorchiligimni bildiraman*”, “*Tabriklayman*” kabilar²⁰.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Muhabbat izhorini shakllantiruvchi leksik birliklar qiyosiy tahlili**” deb nomlangan. Mazkur bobda ingliz va o‘zbek tillarida

¹⁶ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1983. – Б.3.

¹⁷ Ўша асар. – Б. 3.

¹⁸ Богданов В.В. Классификация речевых актов // Личностные аспекты языкового общения. – Калинин, 1989. – С. 25-27.

¹⁹ Федосюк М.Ю. Исследование средств речевого воздействия и теория жанров речи // Жанры речи. – Саратов, 1997. – С. 66-88.

²⁰ Сафаров Ш. Тилшунослик терминлар луғати. – Тошкент: “Lesson press”, 2023. – Б. 103.

muhabbat izhorini shakllantiruvchi leksik, frazeologik, paremiologik birliklar qiyosiy o‘rganilib, muhabbat konseptining badiiy va poetik matnlarda verballashuv jarayoni tahlil qilingan.

Ingliz va o‘zbek tillarida “muhabbat izhori”ni shakllantiruvchi leksik birliklarni tahlil qilish orqali ikki xalqning madaniy qarashlarini, qadriyatlarini hamda estetik qarashlarini chuqurroq anglash mumkin.

S.G.Vorkachevning nuqtayi nazaricha, metalingvistik ong lug‘at ta’riflarida o‘z aksini topadi²¹. Tilshunos ongning muhim darajalari sifatida – ilmiy va kundalik xususiyatlarni tavsiflaydi. Shunday qilib, leksik tahlil inson ongidagi his-tuyg‘ularning leksik belgilari haqida ko‘proq tushunish imkonini beradi. Shunday ekan, muhabbat izhorining turli so‘z turkumlari – ot, fe‘l, sifat, ravish va boshqalar orqali ifodalanishini, ularning sinonimik qatlamlari, ma’no kengayishlari va obrazlilik darajalarini ikki til qiyosida ko‘rib chiqsak.

Ingliz tilida “muhabbat izhori”ni shakllantiruvchi leksik birliklar *ot so‘z turkumi sifatida:*

Ingliz tilidagi so‘zlar va ularning sinonimlari izohiga qaratilgan “Roget’s II: The New Thesaurus” nomli lug‘atda muhabbat izhorini ifodalovchi leksik birliklarning ot shakli quyidagi semantik guruhlariga ajratib izohlangan:

– chuqur va qaynoq mehr-muhabbat ma’nosiga nisbatan munosabatda *adoration, devotion, worship* leksemalari;

– sevishganlar bir-birlariga ehtirosli mehr berish, his qildirish ma’nosiga esa *amorousness, fancy, passion, romance* leksemalari;

– ikki inson o‘rtasidagi jinsiy munosabatlarni ifodalash ma’nosiga nisbatan *affair, amour, love affair, romance* kabi leksemalar;

– mehr va e’tiqod bilan bog‘lanish, mehr va e’tiqodga bog‘liq xolatni ifodalovchi ma’nosiga nisbatan *affection, attachment, devotion, fondness, liking, royalty* kabi leksemalar;

– qattiq sevilgan shaxs ma’nosiga nisbatan *beloved, darling, dear, honey, minion, precious, sweet, sweetheart, true love* (norasmiy: *sweetie*) kabi leksemalar

– kuchli jo‘shqinlik bilan sevish ma’nosiga *love affair, passion, romance* kabi leksemalar sinonim sifatida tavsiflangan²².

fe‘l so‘z turkumi sifatida:

– chuqur va qaynoq mehr-muhabbat izhor qilish ma’nosiga nisbatan: *adore, worship, idolize, treasure* kabi leksemalar;

– sevishganlarning ehtirosli mehr berishi va his qildirish ma’nosiga nisbatan: *desire, crave, long for, yearn for, fancy* kabi leksemalar;

– jinsiy munosabatlarni ifodalash ma’nosiga nisbatan:

make love, embrace, caress, seduce, consummate kabi leksemalar;

– mehr va e’tiqod bilan bog‘lanish, sadoqatni ifodalash ma’nosiga nisbatan: *cherish, value, trust, dedicate, devote, admire* kabi leksemalar;

– sevikli shaxsni erkash, mehr izhor qilish ma’nosiga nisbatan:

²¹ Воркачев С.Г. Любовь как лингвокультурный концепт: Монография – Москва: Гнозис, 2007. –С. 261.

²² Roget’s II: The New Thesaurus. – New York: Houghton Mifflin Company, 1995. – P. 603.

love, like, miss, care for, hold dear, prize kabi leksemalar;

– kuchli jo‘shqinlik, ehtiros bilan sevish ma’nosiga nisbatan:

desire passionately, burn for, crave, want, be infatuated with kabi leksemalar;²³

sifat so‘z turkumi sifatida:

– sevimli, yoqimli, mehr uyg‘otadigan insonlarni sifatlash orqali muhabbat izhorini ifodalashda: *lovable, adorable, sweet* kabi leksemalar;

– ko‘p mehr-muhabbat va mehribonlik bilan qaraladigan insonlarga nisbatan muhabbat izhorini ifodalashda: *beloved, darling, dear, precious* kabi leksemalar;

– kimningdir tashqi ko‘rinishi yoki fe‘l-atvori, yoqimli xarakterini maqtash orqali muhabbat izhorini ifodalashda: *attractive, bewitching, enchanting, engaging, enticing, fascinating, fetching, glamorous, prepossessing, pretty, sweet, taking, tempting, winning, winsome* kabi leksemalar;

– go‘zallik, joziba yoki tashqi ko‘rinishdagi chiroyini ifodalash orqali muhabbat izhor qilishda: *attractive, beautiful, comely, fair, good-looking, gorgeous, handsome, pretty, ravishing, sightly, stunning* kabi leksemalar;

– mehr va muhabbatni his qilish va uni izhor etishda: *loving, affectionate, devoted, doting, fond* kabi leksemalar²⁴.

olmosh so‘z turkumi sifatida:

– ikki inson orasidagi o‘zaro egalik, sodiqlik va muhabbatga oid yaqinlikni ifodalashda: *mine, yours, you* kabi leksemalari orqali muhabbat izhori ifodalanadi.

O‘zbek tili leksikonida muhabbat izhorini ifodalovchi so‘zlarni ham turli so‘z turkumlariga oid semantik maydonda ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

ot so‘z turkumi sifatida:

“Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”da *muhabbat, ishq, sevgi* leksemalariga izoh berilib, ularni har biri ikki semantik guruhlarda qayd etilgan:

muhabbat - 1) ishq, sevgi; biror kimsaga yoki narsaga bog‘lanib qolish holati. Birinchi muhabbat; 2) mehr, moyillik. She’riyatga muhabbat qo‘ymoq²⁵.

A.Madvaliyevning tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *muhabbat* leksik birligining izohini tahlil qilish jarayonida quyidagi ma’no shakllariga duch keldik: 1) Kimsaning kimsaga qalbdan berilish hissi. Sinonim sifatida esa *sevgi, ishq* leksemalari keltirilgan; 2) Birovga, biron narsaga yoki ishga berilish, *moyillik tuyg‘usi, mehr*. 3) Muhabbat (xotin qizlar ismi).

ishq – 1) yorni sevish, muhabbat, sevgi. Ishq o‘tida yonmoq; 2) mayl, ehtiros, ishtiyoq. Ishq bilan mashinasini yuvmoq. Ishq-muhabbatga oid. Ishqiy roman²⁶.

sevgi (ot) 1) ikki shaxs, ikki jins o‘rtasidagi yoki er bilan xotin o‘rtasidagi qalbdan berilgan tuyg‘u, ruhiy xolat, kayfiyat, ishq, muhabbat. 2) yaqin odamga biror narsa yoki joyga nisbatan mehr-sadoqat tuyg‘usi; muhabbat²⁷.

²³ Roget’s II: The New Thesaurus. – New York: Houghton Mifflin Company, 1995. –P. 603.

²⁴ O‘sha asar. – P. 604.

²⁵ Hojiyev A., va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati / A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov va boshq. –Toshkent: Sharq, 2001. – B. 140.

²⁶ O‘sha asar. – B. 90.

²⁷ O‘sha asar. – B.225.

Demak, o‘zbek tilida muhabbat izhorini ifodalovchi semantik maydoni markazida *muhabbat*, *sevgi*, *ishq* leksemalari turar ekan. Bundan tashqari, muhabbat izhorini *baxt*, *quvonch*, *yurak*, *ko‘ngil*, *qalb*, *jon*, *sog‘inch* kabli so‘zlar orqali ham ifodalash mumkin.

fe‘l so‘z turkumi sifatida:

A.Hojiyev va boshqalar tahriri ostida nashr ettirilgan “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘atida *sevmoq* leksik birligining fe‘l shakllari quyidagicha izohlanadi:

sevmoq (fe‘l) 1) o‘zi uchun uchun borliqdagi eng go‘zal, eng bokira insonga ishq-muhabbat tuyg‘usi bilan qalbdan, butun vujudi bilan berilmoq, *muhabbat bog‘lamoq*, *yaxshi ko‘rmoq*, *maftun bo‘lmoq*.

2) *xush ko‘rmoq*, *yoqtirmoq*, *yaxshi ko‘rmoq*.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”²⁸da muhabbat izhorini ifodalovchi “*sevmoq*” fe‘li 3ta leksik semantik guruhda tavsiflangan:

1) *ishq muhabbat tuyg‘usi bilan munosabatda bo‘lmoq*, *ko‘ngil qo‘ymoq*, *yaxshi ko‘rmoq*;

2) *mehr-muhabbat*, *sadoqat ko‘rsatmoq*, *g‘amxo‘lik qilmoq*;

3) *yoqtirmoq*, *yaxshi ko‘rmoq*.

Sevmoq fe‘liga mazkur lug‘atda antonim sifatida *jini sevmaslik* so‘z birikmasi keltirilib, *yoqtirmaslik*, *ta‘biga*, *didiga to‘g‘ri kelmaslik*, *yomon ko‘rmoq* kabi ma‘nolari izohlangan.

Shuningdek o‘zbek tilida muhabbat izhorini ifodalashda *suymoq*, *sog‘inmoq*, *kutmoq*, *ishqi tushmoq*, *ardoqlamoq*, *ishonmoq*, *muhabbat qo‘ymoq* kabi fe‘l so‘z turkumiga kiruvchi leksik birliklarni ham keltirish mumkin.

sifat so‘z turkumi sifatida:

So‘zlovchining sevgan insonini qadrini, go‘zalligini, yoqimlilikini yoki qalbga yaqinligini ifodalash orqali muhabbat izhor qilishda quyidagi leksik birliklarni keltirish mumkin:

azizam, *shirinim*, *shakarim* – erkalash va mehr ifodasi; sevgilining qadrli, yoqimli va shirinligini bildiradi.

sevikli, *sevimli*, *suyukli* – sodiqlik va samimiyat ifodasi; sevgilining qalbga yaqin, chin dildan sevib bo‘linganligini ko‘rsatadi.

go‘zal, *chiroyli*, *jozibador*, *maftunkor* – tashqi qiyofa va joziba ifodasi; sevgilining go‘zalligi va maftunkorligini madh etadi.

Shunday qilib, bu birliklar sevgi va muhabbatni his qilish va uni ifodalashda turlicha semantik rang beradi: ba‘zilari mehribonlik, ba‘zilari tashqi go‘zallik, ba‘zilari esa samimiy sodiqlikni bildiradi.

olmosh so‘z turkumi sifatida:

– ikki inson orasidagi o‘zaro egalik, sodiqlik va muhabbatga oid yaqinlikni ifodalashda: *menikisiz*, *o‘zinnikisiz*, *siznikiman* kabi leksemalari orqali muhabbat izhori ifodalanadi.

²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати II жилд: -Тошкент, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020. – Б.471.

Frazeologik birliklar va paremiyalar tilning majoziy vositalari sifatida soʻzlovchining madaniy anʼanalarini aks ettiradi hamda olam manzarasining shakllanishiga taʼsir koʻrsatadi. V.Teliya taʼkidlaganidek, frazeologik birliklar va paremiyalarning ichki shakli nafaqat motivatsiyani ifodalaydi, balki milliy-madaniy mazmuni ham oʻzida mujassam etadi. Buning sababi shundaki, bu lisoniy birliklarning paydo boʻlish manbai insonning empirik, tarixiy va maʼnaviy tajribasini ifodalovchi voqelikning majoziy tasviridan kelib chiqadi²⁹.

Muhabbat izhorini ifodalovchi frazeologizmlarni yaxlit qiyofasini aniqlash uchun ingliz va oʻzbek tillaridagi izohli lugʻatlarga murojaat qilamiz. Oksford universiteti nashriyotida 2009-yilda Kolin Makintosh muharrirligida chop etilgan “Oxford Collocations Dictionary”³⁰ soʻz birikmalari lugʻatini koʻrib chiqqanimizda quyidagi frazeologik birikmalarni aniqladik:

– muhabbat izhorini ifodalovchi soʻz birikmalarining yasalishiga koʻra adj+love konstruksiyasidagi iboralar: *all-consuming love, burning love, deep love, great love, immense love, intense love, overwhelming love, passionate love, profound love, tender love, genuine love, perfect love, pure love, real love.*

– muhabbat izhorini ifodalovchi soʻz birikmalarining yasalishiga koʻra verb+love konstruksiyasidagi iboralar: *feel love, have love, know love, search love, find love, confess love, declare love, express love, pledge love, proclaim love, profess love, doubt love, give love, send love, be in love, fall in love, make love.*

– muhabbat izhorini ifodalovchi soʻz birikmalarining yasalishiga koʻra love+verb konstruksiyasidagi iboralar; *love bloom, love blossom, love grow, love die, love fade, love prevail.*

– muhabbat izhorini ifodalovchi soʻz birikmalarining yasalishiga koʻra love+noun konstruksiyasidagi iboralar: *love affair, love triangle, love life, love interest, love object, love rival, love letter, love note, love token, love poem, love poetry, love song, love story.*

– muhabbat izhorini ifodalovchi predlogli birikmalarining tarkibidagi iboralar: *for love, out of love, in love, love between, love for, love of.*

– muhabbat izhorini ifodalovchi frazeologik birikmalarining tarkibidagi iboralar: *an act of love, deeply in love, madly in love, passionately in love, desperately in love, head over heels in love, hopelessly in love, love at first sight, love conquers all, the love of smb’s life.*

Oʻzbek tilida “Muhabbat izhori” maʼnosini bildiruvchi frazeologik birliklar semantikasini ifodalash maqsadida Sh.Rahmatullayevning Oʻzbek tili frazeologik lugʻati³¹ maʼlumotlariga murojaat qilganimizda quyidagilarni aniqladik: lugʻatda muhabbat izhorini ifodalashda *sevmoq, suymoq* leksemalariga sinonim sifatida *yaxshi koʻrmoq, maftun qilmoq, mahliyo boʻlmoq, oshiq boʻlmoq, xushtor boʻlmoq, shaydo boʻlmoq, oshufta boʻlmoq, ishq tushmoq* kabi frazeologik birikmalarini biror

²⁹ Телия В.Н. Культурно-национальные коннотации фразеологизмов (от мировидения к миропониманию) // Славянское языкознание: XI Международный съезд славистов. – Москва: Наука, 1993. – С. 302-314.

³⁰ Oxford Collocation Dictionary for Students of English. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – P.494.

³¹ Oʻzbek tili frazeologik lugʻati: lugʻat / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.Oʻrazova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.256.

kimsaga nisbatan ishq-muhabbat tuyg'usida bo'lmoq, unga ko'ngil qo'ymoq ma'nolarida keltirilganligining guvohi bo'ldik.

Yaxshi ko'rmoq frazeologik birikmasi asosan so'zlashuv tiliga xos bo'lib, badiiy nutqda qo'llaniladigan *oshiq bo'lmoq, xushtor bo'lmoq* frazalariga sinonim hisoblanadi. *Shaydo bo'lmoq, oshufta bo'lmoq, maftun qilmoq, mahliyo bo'lmoq* kabi frazeologik birikmalar esa poetik bo'yoqdorlikni ifodalashda qo'llaniladi.

Bundan tashqari, lug'atda *yurak, ko'ngil, muhabbat, hayol* kabi leksemalar bilan yasalgan frazeologik birliklar guruhini aniqladik. Masalan: *yuragini ochmoq, yurag(i)ni qitiqlamoq, yurag(i) jaz etdi, muhabbat bog'lamoq, muhabbat qo'ymoq, birinchi muhabbat, ko'ngul bermoq, ko'ngul bog'lamoq, ko'ngul parvona bo'lmoq* va boshqalar.

Yurak leksemasi bilan yasalgan frazeologik birliklarga nazar tashlaydigan bo'lsak; *yuragini ochmoq, ko'nglini ochmoq, ko'nglini yormoq, yuragini yormoq, yurag(i)ni qitiqlamoq, yurag(i) jaz etdi.*

Muhabbat leksemasi bilan yasalgan frazeologik birliklar *muhabbat bog'lamoq, muhabbat qo'ymoq* kabilardir.

Ko'ngil leksemasi bilan yasalgan frazeologik birliklarga badiiy, nasriy va poetik janrlarda qo'llaniladigan quyidagi frazeologik birliklarni keltirishimiz mumkin: *ko'ngul bermoq, ko'ngul bog'lamoq, ko'ngul parvona bo'lmoq, ko'ngulni olmoq, ko'ngl(i)ni ovlamoq, ko'ngliga otash tashlamoq, ko'ngil qo'ymoq, ko'ngl(i) bor, jon-u ko'ngulni olmoq, ko'ngul parvona bo'lmoq.*

Bundan tashqari o'zbek tili frazeologik lug'atida *ko'z, hayol, aql, bosh* kabi leksemalar bilan yasalgan turli semantik maydon orqali muhabbat izhorini ifodalovchi frazeologik birikmalarni ham uchratdik. Masalan, *ko'z suzmoq, ko'z qismoq, xayol(i)ni olmoq, aqlini olmoq, ola qaramoq, suq(i) keldi, es-hush(i)ni olib qo'ymoq, boshini aylantirmoq.*

Ingliz va o'zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalovchi frazeologik birliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ikki tilda ham milliy mentalitet, madaniyat va xalqlarning urf-odatlarini muhim o'rin tutadi. Xususan, ingliz tilida muhabbatning yorga, juftiga bo'lgan sadoqatini, oilasiga bo'lgan mehrini, qarama-qarshi jins vakillarining bir-biriga nisbatan jinsiy moyilligini, vaqtinchalik hirs uchun bo'lgan sevgisi kabi ma'nolarni ifodalovchi birikmalar mavjudligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Turli tizimli tillarda muhabbat izhorining pragmatik mazmuni**", deb nomlangan bo'lib, muhabbat izhorini shakllantiruvchi vositalarning pragmatik vazifalari aniqlangan. Shuningdek, qiyoslanayotgan tillarda muhabbat izhorining lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilib, kommunikativ kontekstda muhabbat izhorining pragmatik mazmuni empirik so'rovnoma asosida tahlil qilingan.

Muhabbat izhorini shakllantiruvchi lisoniy vositalarning qo'llanilishi va ularning muloqot jarayonidagi pragmatik vazifasini qiyosiy tahlil qilish jarayonida ingliz badiiy asarlaridan 440ta hamda o'zbek badiiy asarlaridan 421ta muhabbat izhorlari ifodalangan misollarni o'rganib chiqdik. Natijada, barcha misollarning tahlilini keltirish ko'p hajmni egallashini inobatga olib, eng ko'p qo'llanilgan lisoniy vositalarni va ularning pragmatik vazifalarini jadval ko'rinishida taqdim etdik.

3.1-jadval.

Muhabbat izhorini shakllantiruvchi lisoniy vositalarning pragmatik vazifalari

№	Lisoniy vosita turi	Ingliz tilida ifodalanishi	O‘zbek tilida ifodalanishi	Pragmatik vazifasi
1.	Metafora (o‘xshatish)	...you are my sun, my moon, and all my stars.	Qorachig‘larim o‘rnida jilvalangan so‘nmas quyosh aslida sensan!..	Muhabbatni bitmas-tuganmas hayot manbai sifatida tasvirlab, sevgilisini ulug‘laydi. Metoforik markerlar: <i>yurak, oy, quyosh, yulduz, gul, farishta, jannat, dunyo</i> kabilar.
2.	Giperbola (bo‘rttirish)	I cannot breathe without you.	Jonimdan ortiq yaxshi ko‘raman.	Muhabbatni hayot manbai sifatida bo‘rttirib, fidoyilikni ta’kidlash orqali hissiy ta’sirni oshiradi. Bo‘rttirishni ifodalovchi markerlar: <i>sensiz, juda, eng, butun umr, hech qachon, abadiy, jonimdan ortiq</i> kabilar.
3.	Metonimiya / ramziy ifoda	All my heart is yours	...bugun yuragimni sovg‘a qilaman sizga...	Muhabbatni inson yuragi orqali ramziylashtirib, hissiy yaqinlikni oshiradi. Metonimik markerlar: <i>yurak, gul, uzuk, qizil rang, ko‘z, qo‘l, bo‘sa, maktub</i> kabilar.
4.	Emotsional ifodalar	You are my dearest one.	– Ra‘no! Jonim! Go‘zalim!	Samimiy mehr-muhabbat va hissiy yaqinlikni ifodalaydi; So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida emotsional aloqa o‘rnatadi. Emotsiyani ifodalovchi markerlar: <i>sevmoq, sog‘inmoq, kutmoq, armon qilmoq, xursand bo‘lmoq, quvonmoq, hayajonlanmoq</i> <i>dear, love, miss, be happy</i> kabilar.
5.	Diniy ifodalar	You are my sympathy – my better self – my good angel	tuyquz yo‘limda paydo bo‘lib qolgan najot farishtam	Muhabbatni muqaddas bilib, sevgilisini farishtaga qiyoslaydi. Muhabbatni e’tiqod bilan bog‘laydi. Diniy markerlar: <i>Alloh, Xudo, taqdir, jannat, duo, nasib, ilohiy, farishta God, angel, fate</i> kabilar.
6.	Takror ifodalar	You have bewitched me body and soul and I love, love, love you	Meni sevasiz-ku! – Ha, sevaman, judayam sevaman.	Muhabbatni samimiy ifodalashda ta’sir kuchini oshiradi, urg‘ulaydi. Takroriy ifodalarni aks ettiruvchi markerlar: <i>ikki va undan ortiq takror qo‘llaniladigan leksik birliklar, iboralar.</i>
7.	Undov ifodalar	You came – oh, – my beautiful love!	Ey go‘zalim, mahvashim,	Emotsional hissiy kechinmalarni portlashini, ichki his-hayajonni bevosita ifodalaydi. Undov ifodalarni namoyon etuvchi markerlar: <i>oh, voh, ey</i> kabilar.
8.	Soddalashtir ilgan izhor	I love you.	«Men seni sevaman» «Men ham...»	Muhabbat izhorini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va samimiy uzatilishini ta’minlaydi. Lisoniy markerlar: <i>sevaman, sog‘indim, kutaman, yoqasan, love, like</i> kabilar.
9.	Sifatlovchi ifodalar	but you'll still be beautiful	Sen naqadar mo‘jizakor, latofatli, beg‘ubor, go‘zalsan...	So‘zlovchi tinglovchini ideallashtirish, ijobiy baholash, sharflash orqali emotsional ta’sirini oshiradi. Lisoniy markerlar: <i>go‘zal, mehribon, aziz, qadrli, jonim, bebaho, darling, beautiful, precious, lovely</i> kabilar.

Muhabbat izhori lingvomadaniy tadqiqotlar doirasida inson ichki hissiy va ma’naviy olamining til orqali ifodalanish jarayonini namoyon etuvchi muhim kommunikativ hodisa sifatida belgilanadi. Bu hodisa nafaqat shaxsiy emotiv

kechinmalarni ifoda etadi, balki u orqali ma'lum bir xalqning madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini, milliy an'analarini va dunyoqarashini ham namoyon etadi.

Tadqiqot ishi doirasida ingliz va o'zbek tili sohiblarining turli yoshdagi vakillari jalb qilinib, (Ingliz tili sohiblari 55 nafar 17-25, 69 nafar 26-40, 28 nafar 41 va undan yuqori yoshdagilar, O'zbek tili sohiblari 80 nafar 17-25, 75 nafar 26-40, 35 nafar 41 va undan yuqori yoshdagilar) so'rovnoma tahlil metodidan (onlayn (google form) va offlayn (anketalashtirish) tarzida) foydalangan holda muhabbat izhorining kommunikativ kontekstlardagi talqini bo'yicha tajriba o'tkazildi. Tajribamiz davomida muhabbat tushunchasining ikki madaniyat sohiblari ongida namoyon bo'lishi, muhabbat izhorini ifodalash usullari, strategiyalari, ramziy vositalar, izhorning qabul qilinishi, kontekstual faktorlar hamda ifoda vosita turlari kabi kategoriyalarni o'z ichiga olgan savollardan foydalandik.

Qiyoslanayotgan til sohiblari o'rtasida o'tkazilgan "How do you understand love?" (*Siz muhabbatni qanday tushunasiz?*) savoli asosida muhabbatning ingliz va o'zbek madaniy tafakkurida qanday tushunchalar orqali aks etishi kuzatildi.

O'tkazilgan tajriba natijalaridan kelib chiqib, muhabbat tushunchasining ingliz va o'zbek tili sohiblarining tafakkurida gavdalanishi borasidagi tahlillarimizni aniqroq ko'rish uchun jadval asosida keltirdik.

3.2-jadval.

Muhabbat izhorining qiyoslanayotgan til sohiblari tafakkurida gavdalanishi

Muhabbatni qanday tushunasiz?			
Yosh toifasi	Ingliz tili sohiblari	O'zbek tili sohiblari	Izoh
17-25	<i>Emotion, connection, support, comfort, trust, safety, loyalty</i>	<i>tushunish, qadrlash, hurmat, mehr, e'tibor, iliq tuyg'u, sadoqat, ishonch, vafo, bog'lanib qolish</i>	Ingliz xalqida: Muhabbatni ko'proq shaxsiy, emotsional tarzda namoyon etadi. Individual tarzda shakllantiriladigan madaniyatga xos ruhiy yaqinlik, hissiy bog'liqlik orqali aks ettirilgan O'zbek xalqida: Ijtimoiy odob-axloq me'yorlari doirasida talqin qilingan. Muhabbat – hissiy holat bilan bir qatorda insoniy qadriyatlarga bog'langan.
26-40	<i>responsibility, loyalty, protection, partnership, emotional security, respect, supporting</i>	<i>oila, mehr va e'tibor, vafo, bir-birini tushunish, o'zaro hurmat, ehtirosalar</i>	Ingliz xalqida: Barqaror munosabatlar, reallik va shaxsiy tajribaga asoslangan qarashlar, o'zaro hurmat asosida hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. O'zbek xalqida: Madaniy tafakkur markazida oila qo'yilib, uning atrofida ma'naviy qadriyatlarga asoslangan mehr, vafo, hurmat, tushunish kabi tamoyillarga bog'langan.
41 yosh va undan yuqori	<i>Loyalty, respecting, supporting, appreciation, understanding</i>	<i>Oila, Qadrlash, ishonch, sadoqat, hurmat, farzandlar</i>	Ingliz xalqida: Shaxsiy hayot tajribasi asosida shakllangan munosabatlar, hurmat, tushunish va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi. O'zbek xalqida: Hayot tajribasi asosida shakllanib kelgan qadriyatlarga asoslangan qarash, oila, farzandlar va oilaviy burchlarga bog'langan.


Keltirilgan jadvaldagi tahlillardan ko‘rinadiki, muhabbat ikki madaniyat vakillarining turli yoshlardagi shaxslar tafakkurida turlicha talqin qilinarkan. Masalan, Ingliz madaniyatida muhabbat shaxsiy chegara doirasida shakllanib, individual munosabatlarga asoslansa, o‘zbek madaniyatida shaxsiy emotsional hodisa sifatida qaraladi lekin ijtimoiy-axloqiy chegaradan chiqmaydi va oilaviy munosbatlar bilan yakunlanadi.

Biz tadqiqotimiz davomida respondentlarning muhabbat izhorini ifodalashda qanday mazmunni ifodalovchi vositalardan foydalanishlarini aniqlash maqsadida *Muhabbat izhorini ifodalashda qanday so‘z yoki frazalardan foydalanasiz?* degan savolimizni taqdim etdik. Tajribada ishtirok etgan ingliz tili sohiblari 17-25 yoshlilar orasida yigitlar tomonidan *“I love you, I adore you, I appreciate you, You are important to me, I am crazy about you”* kabi variantlarini keltirishgan bo‘lsa, ushbu yoshdagi qizlar tomonidan *“I love you, I adore you, I am yours, You are everything to me, My heart is forever yours”* kabi izhorlari bilan javob berishdi. 26-40 yoshdagi respondentlarimiz yuqoridagi avlod vakillaridan ko‘p farq qilmagan holatda yigitlar tomonidan *“I love you, I appreciate you, I admire you, I am here for you, I love being with you, You are special”* jumalari orqali o‘z tanlovlarini bildirgan bo‘lishsa, ushbu yoshdagi qizlar esa *“I love you, I care about you, You matter to me, There is no one else I’d rather be with”* jumalalarini keltirishdi. 41 va undan yuqori yoshdagi ishtirokchilar yuqoridagi ikki toifa vakillariga qaraganda muhabbat izhoriga badiiyoq va tasviriy yondashgan holda javoblarini taqdim qilishdi. Masalan, erkaklar *“I love you, I care about you” jumalari bilan bir qatorda “You are my angel, You are my world,”* variantlarini sanab o‘tishdi. Bundan tashqari uy hayvonlari nomlari bilan erkalab chaqirish orqali ham izhor amalga oshirishlarini yozib qoldirishgan bo‘lsa, ushbu yoshdagi ayollar tomonidan *“I love you, You mean the world to me, I don’t want to live a life without you”* kabi izhor na‘munalari keltirildi.

Ushbu savol bo‘yicha o‘zbek tili sohiblari o‘rtasida bildirilgan fikrlar, keltirilgan izhorlar ingliz tili sohiblarinikidan strategik yondashishda ayrim farqli jihatlar aniqlandi. 17-25 yoshlilar orasida yigitlar tomonidan *“Men sizni sevaman, Men sizni yaxshi ko‘raman, Siz menga yoqasiz, Yuragim faqat sizni deydi”* izhorlari ko‘p qo‘llanilsa, ushbu yoshdagi qizlar muhabbatlarini lisoniy vositalar, tag ma‘no va stilistik bo‘yoqdor so‘zlar hamda sukut yoki noverbal harakatlar orqali izhor etishlarini maqul ko‘rishar ekan. Masalan, ayrim qizlarimiz *“Yaxshiyam borsiz, Siz menga keraksiz, Sizni Alloh uchun yaxshi ko‘raman”* jumalalarini keltirishgan bo‘lsa, ayrimlari *“Sukut saqlayman, Ko‘zlari orqali ifodalayman, Harakatlarim orqali bildiraman”* degan javoblarni qoldirishgan. 26-40 yoshdagi respondentlarimiz orasida yigitlar *“Men seni sevaman, Seni qattiq sog‘indim, Men seni yoqtirib goldim, Menga juda yoqasan”* kabi jumalarni yozib qoldirishgan bo‘lsa, qizlar tomonidan *“O‘zingizni ehtiyot qiling, Sizni doim ko‘rgim keladi, Ovqatlandingizmi?* (respondent izohi: Sevgan insoni haqida qayg‘urish orqali muhabbat kuchliroq yetkaziladi), *Siz mening qadrligim, hayotimsiz”* kabi izhorlar keltirildi. 41 va undan yuqori yoshdagi hamyurtlarimiz tomonidan oldingi ikki avlod vakillaridan farqliroq ravishda qisqa va sodda jumalarni keltirishdi. Masalan, erkaklar *“Ayajonisi, Azizam, Mehribonim, Hayotim, Seni yaxshi ko‘raman”* jumalalarini tanlashgan


bo'lsa, ayollar tomonidan *“Men sizga ishonaman, Arslonim, Suyanchig‘im, Begim”* kabi izhor na'munalarini keltirishgan.

Yuqoridagi tahlillarda keltirilgan na'munalar hamda qo'shimcha savol (Muhabbat izhor qilishda siz ko'proq qaysi strategiyani afzal ko'rasiz: bevosita yoki bilvosita?) orqali e'tiborimizni har ikkala til vakillarining izhor strategiyalarini aniqlashga qaratdik. Unga ko'ra;



3.1-rasm. Erklarda izhor strategiyalari tanlovi


Ushbu jadvaldan kelib chiqib, respondentlarimizning har uchala yosh toifasidagi erkak vakillari bevosita izhor strategiyasini qo'llashni afzal ko'rishlari aniqlandi. Ularning fikricha, izhorda aniqlik va ochiqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 17-25 yoshli ishtirokchilarning 81 foizi bevosita izhor strategiyasini tanlashgan bo'lishsa, 19 foizi bilvosita izhor strategiyasini afzal ko'rishdi. 26-40 yoshlilar o'rtasida ham deyarli shu foiz atrofida tanlovlar aniqlandi. Ularning 78 foizi to'g'ridan-to'g'ri izhorni, 22 foizi bilvosita izhorni tanlashdi. 41 va undan yuqori yoshdagi respondentlar yuqoridagi yosh toifalaridan biroz farqli ravishda, lekin, tanlov ustuvorligi bevosita izhor strategiyasi tomonida bo'lib, 70%/30% ko'rinishida bo'ldi.



3.2-rasm. Xotin-qizlarda izhor strategiyalari tanlovi


Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkin, respondentlarimizning ikki yosh toifasidagi xotin-qizlarning (17-25 yoshdagilar hamda 26-40 yoshdagilar) 60% vakillari bevosita izhor strategiyasini tanlashgan bo'lishsa, 40% ishtirokchilar bilvosita izhor strategiyasini afzal ko'rishdi. 41 va undan yuqori yosh toifasidagi respondentlar yuqoridagi ikki yosh toifasidan farqli ravishda, ko'proq bilvosita, turli ifodalar, lisoniy vositalar hamda ramziy harakatlar orqali yondashuvni bevosita izhordan ustun qo'yishdi. Ushbu yoshdagi ishtirokchilarning 70%i bilvosita izhor strategiyasini tanlashgan bo'lsa, 30%i bevosita muhabbat izhorini afzal ko'rishdi.

O‘zbek tili sohiblari ham muhabbat izhor qilishda o‘z strategik yondashuvlarini keltirishdi. Mahalliy respondentlarimiz 17-25 yoshlilar 80 nafar, 32 nafar erkaklar, 48 nafar ayollar, 26-40 yoshlilar 75 nafar, 23 nafar erkaklar, 52 nafar ayollar, 40 yosh va undan yuqori yoshdagilar 35 nafar, 16 nafar erkaklar, 19 nafar ayollar. So‘rovnomada ishtirok etgan ishtirokchilarimizning tanlovlari asosida quyidagi chiziqli grafik shakllantirildi. Unga ko‘ra;



3.3-rasm. Erkaklarda izhor strategiyalari tanlovi

Ushbu jadvaldan ko‘rishimiz mumkin, respondentlarimizning ikki yosh toifasidagi yigitlar, 17-25 yoshdagilar 62% vakillari bevosita izhor strategiyasini afzal ko‘rishgan bo‘lsa, 26-40 yoshdagilarning 60% ishtirokchilari mazkur yondashuvni yoqlab tanlov qilishdi. Ushbu yosh toifasidagi qolgan ishtirokchilar (17-25 yoshlilarning 38%i hamda 26-40 yoshdagilarning 40%i) bilvosita muhabbat izhori ustuvorligi asosida fikrlarini yozib qoldirishdi. 41 va undan yuqori yoshdagi vatandoshlarimizning 79%i yuqoridagi avlodlaridan farqli ravishda turli stilistik vositalar, yashirin ifodalar hamda tag ma‘noli gaplar orqali muhabbat izhor qilishni o‘zlariga mos tanlov sifatida qabul qilishdi. Ushbu yoshdagilarning 21 foizi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri izhor strategiyasini qo‘llab-quvvatlashdi.



3.4-rasm. Xotin-qizlarda izhor strategiyalari tanlovi

Ushbu jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib, mahalliy xotin-qizlarning har uchala yosh toifasidagi vakillari bilvosita izhor strategiyasini qo‘llashni muhim sanashdi. Ularning fikricha, izhorda o‘zbekona ibo-hayo, sharqona tarbiyani unutib qo‘ymaslik, odobni me‘yorida saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 17-25 yoshli ishtirokchilarning 82 foizi bilvosita izhor strategiyasini tanlashgan bo‘lishsa, 18 foizi bevosita izhor strategiyasini afzal ko‘rishdi. 26-40 yoshlilar o‘rtasida ham deyarli shu foiz atrofidagi tanlovlar

aniqlandi. Ularning 80 foizi turli soʻz va iboralar, noverbal harakatlar orqali izhorni tanlov qilishgan boʻlsa, 20 foizi bevosita izhorni tanlashdi. 41 va undan yuqori yoshdagi respondentlar oʻz hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, yuqoridagi yosh toifalaridan farqli ravishda, bilvosita izhor strategiyasi 100% qoʻllab-quvvatlashdi. Bunga qoʻshimcha tarzda ishtirokchilardan biri *“Hattoki, turmush oʻrtogʻimni koʻziga qarab gapirishga andisha qilar edim, ochiq izhor qayerda deysiz”* kabi izoh qoldirgan.

Tajribamiz davomida muhabbat izhorini turli kommunikativ kontekstlar doirasida tahlil qilish orqali uni koʻp jabhali murakkab pragmatik hodisa sifatida aks etganligini guvohi boʻldik. Soʻrovnoma natijalari asosida shuni taʼkidlash mumkinki, muhabbatni ifodalashda turli lingvistik vositalar bilan bir qatorda, soʻzlovchi va tinglovchining madaniy dunyoqarashlari, emotsional holati hamda ular oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Muhabbat izhori jarayonida turli kommunikativ strategiyalar va taktikalarning qoʻllanilishi, ramzlardan foydalanish, verbal va noverbal harakatlarning qoʻllanilishining natijasi qabul qiluvchiga perlukatsion taʼsir etish hamda qoʻyilgan maqsadga erishilganlik holati bilan belgilanadi. Shuningdek, muhabbat izhoriga boʻlgan yondashuvlarda, turlicha izhor shakllaridan foydalanishda respondentlarning yosh, jins va madaniy qarashlariga koʻra farqli va oʻxshash jihatlari aniqlandi.

XULOSA

1. Har qanday nutqiy harakat avvalo insonning mental olamida, tafakkurida konsept sifatida shakllanib, soʻngra verbal ifodalar orqali inson nutqida namoyon boʻladi. Mentallik esa shaxs va ijtimoiy guruhga xos fikrlash tarzi hamda maʼnaviy munosabatlar majmui sifatida muhabbat izhorining shakllanishida muhim oʻrin tutadi. Muhabbat izhorining konseptuallashuvi insonning emosional tajribasi, milliy qadriyatlari va kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bogʻliq holda yuzaga keladi. Bu esa mazkur hodisaning lingvokognitiv va lingvomadaniy tabiatini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

2. Nutq jarayonida ifodaning hissiyligini oshirishda ekspressiv vositalarning oʻrni muhim sanaladi. Ushbu vositalar nutqning emotsionallik darajasini oshirish bilan bir qatorda, uning pragmatik taʼsirchanligini taʼminlashga xizmat qiladi. Muhabbat izhori emotiv-ekspressiv hodisa sifatida verbal va noverbal vositalarning kognitiv-pragmatik mazmuniga aloqadorligi namoyon boʻldi. Ekspressiv vositalar tilning uslubiy va emotsional rang-baranglik xususiyatini namoyon etadi, shuningdek soʻzlovchining botiniy emotsional holatini va kommunikativ maqsadini aks ettiradi.

3. Ekspressiv nutqiy aktlar soʻzlovchining emotsional holati va munosabatini ifodalash orqali muloqot jarayonida muhim pragmatik vazifani bajaradi. Ularning konseptuallashuvi inson tafakkurida muayyan emotsional mazmunga asoslanib shakllanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Ayniqsa, muhabbat izhori jarayonida ekspressiv nutqiy aktlar shaxslararo munosabatlarni ifodalash, emotsional aloqa oʻrnatish va kommunikativ taʼsirni kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon boʻladi.

4. Muhabbat izhorini ifodalovchi leksik birliklar ingliz va o'zbek tillarida muayyan semantik tizimni tashkil etadi. Ushbu birliklar mazmun jihatidan ehtiros, mehr-e'tiqod, erkalash, jo'shqinlik, e'tirof, yaqinlik va sadoqat kabi asosiy ma'no kategoriyalariga guruhlanishi aniqlandi. Bu esa muhabbat konseptining har ikki tilda ko'pqirrali va tizimli leksik ifodalanish xususiyatiga ega ekanini tasdiqlaydi.

5. Ingliz va o'zbek tillarida muhabbat izhorlari frazeologik birliklar orqali ifoda etilishi hamda ularning pragmatik ma'nosi tadqiq etildi. Ingliz va o'zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalovchi frazeologik birliklar, ikki tilda ham ushbu til sohiblarining madaniy qarashlari hamda qadriyatlaridan kelib chiqib yondashilganligiga guvoh bo'ldik. Xususan, ingliz tilida muhabbatning yorga, juftiga bo'lgan sadoqatini, oilasiga bo'lgan mehrini, qarama-qarshi jins vakillarining bir-biriga nisbatan ehtirosli munosabati, vaqtinchalik hirs uchun bo'lgan sevgisi kabi ma'nolarni ifodalovchi birikmalarni aniqladik. O'zbek tilida muhabbatning yorga, juftiga, oilasiga bo'lgan mehr-muhabbatini, shuningdek, erkakning ayolga nisbatan ehtirosli munosabati, vaqtinchalik hirs uchun bo'lgan sevgisi kabi ma'nolarni ifodalovchi birikmalar o'zbek tilidagi frazemalarning semantik maydonida ham mavjudligini aniqladik. Biroq, ingliz tilida ushbu semantik mazmun ochiq ifoda etilsa, o'zbek tilida yashirin yoki badiiy bo'yoqlar orqali namoyon bo'ladi.

6. Turli tizimli tillarda umuminsoniy konseptlar verballashuvining tadqiq etilishi qiyosiy tilshunoslikning rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. Chunki, bu kabi qiyosiy izlanishlar natijasida turli millatlarning madaniyati, milliyligi va mentalitetidagi o'xshash va farqli jihatlari yaqqol ko'rsatib beriladi. Shu nuqtai nazardan, ingliz va o'zbek tillarining badiiy adabiyotlarida, izohli lug'atlarida, she'riy va poetik asarlarida hamda maqollarda muhabbat konseptining verballashuvi tahlil qilindi. Qiyoslanayotgan tillar sohiblarining nutqida muhabbat turli lingvistik vositalar, ramzlar hamda obrazlar orqali voqelanadi.

7. Qiyoslanayotgan har ikkala til sohiblarining so'zlovchilari tomonidan muhabbat izhorida turli ramzlardan foydalanishi, (masalan atrgul, qizil olma, uzuk, yurak shaklidagi buyumlar) hadya etishlari orqali o'z muhabbatlarini so'zsiz ifoda etishlari muhabbatning ko'p qirrali tushuncha ekanligini namoyon etadi. Ramzlar so'zlashuv jarayonini boyitib, muhabbat egalarining his-tuyg'ularini chuqurroq yetkazishga yordam beradi. Muhabbat izhorida ramzlarning roli hissiy aloqani mustahkamlash, ekspressiv boyitish va so'zlar bilan tushuntirish qiyin bo'lgan ma'nolarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Ingliz va o'zbek tilidagi nazmiy va nasriy asarlardan to'plangan, muhabbat izhorlari aks etgan misollar tahlil qilindi. Natijada, muhabbat izhorini ifodalovchi lisoniy vositalar aniqlandi hamda ularning pragmatik vazifalari izohlandi. Muhabbat izhorini shakllantiruvchi lisoniy vositalarning pragmatik vazifalari so'zlovchining ichki kechinmalari, ruhiy va hissiy holati hamda kommunikativ maqsadini samarali yetkazishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda keltirilgan muhabbat izhorlari nafaqat hissiy-emotsional holatni, balki so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ham namoyon etadi.

9. Turli tizimli tillar sohiblarining lingvomadaniy qarashlarida muhabbat izhorining ifodalanishi jarayonida izhorga nisbatan so'zlovchi va tinglovchining munosabati, javob reaksiyalari, kommunikativ strategiyalar va taktikalar

qo‘llanilishi muhim omillardan sanaladi. Ushbu jarayon davomida qiyoslanayotgan til sohiblarining muhabbat izhoridagi lingvomadaniy xususiyatlari, ular o‘rtasidagi universal va differensial jihatlari gavdalanadi.

10. Tadqiqot doirasida ingliz va o‘zbek respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muhabbat tushunchasi ingliz va o‘zbek tili sohiblarining tafakkurida umumiy konseptual asosga ega bo‘lsa-da, uning verbal ifodalanishi va kommunikativ strategiyalari madaniy, yosh va gender omillari ta’sirida farqlanadi. Jumladan, ingliz tili sohiblari muhabbat izhorida ko‘proq bevosita ifoda vositalaridan foydalanishga moyil bo‘lsa, o‘zbek tili sohiblari ko‘p hollarda bilvosita va badiiy ifoda shakllarini afzal ko‘radi. Shuningdek, muhabbat izhori jarayonida so‘zlovchilarning ongiy tayyorgarligi, qo‘llaniladigan leksik vositalar va kommunikativ taktikalar yosh toifalariga qarab turlicha qo‘llaniladi. Ushbu jarayonda muhabbat izhorining lokuttiv, illokutiv va perllokutiv ta’siri kompleks tarzda namoyon bo‘lib, u muloqot samaradorligini ta’minlovchi muhim pragmatik omil sifatida baholanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ЭРГАШЕВ МИРСАИД БАХТИЁР УГЛИ

**КОНЦЕПТУАЛЬНОЕ И ПРАГМАТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ
ПРИЗНАНИЯ В ЛЮБВИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № B2024.3.PhD/Fil5165.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: Мирсанов Гайбулло Кулмуродович
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Хайруллаев Хуршид Зайниевич
доктор филологических наук (DSc), профессор

Тешабаева Дилфуза Муминовна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «12» июня 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером № 63183). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «23» мая 2026 года.
Протокол реестра рассылки за № 39 от «23» мая 2026 года.



Н.З. Насруллаева
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современной мировой лингвистике исследование внутренних эмоциональных переживаний человека на различных языковых уровнях, а также их сопоставительный анализ привлекают внимание представителей многих научных направлений. Подобные исследования осуществляются в рамках прагмалингвистики, когнитивной лингвистики, лингвокультурологии, социолингвистики и других дисциплин. Выражение человеческих чувств непосредственно осуществляется посредством языка, и изучение репрезентации эмоций через речевые единицы требует комплексного сопоставительного анализа с антропоцентрической и эмпирической точек зрения. В связи с этим особую актуальность приобретает определение лингвокультурного состава эмоциональных, экспрессивных, вербальных и невербальных языковых средств, используемых для выражения чувств, на основе их сопоставительного анализа.

В мировой лингвистике вопросы эмпирического сопоставительного исследования национально-культурных особенностей межличностных отношений, прагматического содержания эмоционально-экспрессивного выражения и особенностей концептуализации рассматриваются как одно из приоритетных направлений теоретической и прикладной лингвистики. В частности, сопоставительное изучение языковых единиц, выражающих любовь в речи носителей языков различных систем, способствует выявлению их синхронного и диахронного состава в разных языковых системах. С этой точки зрения возникает необходимость сопоставительного исследования языковых средств, активизирующихся при выражении любви. Сопоставительный анализ лексических единиц, выражающих чувство любви, определение их прагматических функций в речи, сопоставление их лингвокультурных особенностей, а также исследование выражения любви в коммуникативном процессе с концептуальной и прагматической точек зрения обуславливают актуальность данного исследования.

В настоящее время в Новом Узбекистане в целях развития науки перед исследователями ставится ряд важных задач. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, «...если мы будем стремиться и прилагать искренние усилия, мы сможем достичь любых высоких целей. В сфере просвещения мы, образно говоря, народ с “богатым внутренним содержанием”. Стремление к науке у нас в крови, говоря современным языком - в наших генах».³² В частности, в нашей стране важным направлением для лингвистов является исследование теоретических основ иностранных языков, а также последовательное внедрение результатов этих исследований в практику языкового образования. Следовательно, сопоставительное исследование выражения любви в английском и узбекском языках с

³² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B. 92.

концептуальной и прагматической точек зрения, изучение национально-культурных особенностей обоих языков, организация эффективной межкультурной коммуникации, а также решение проблем, возникающих при передаче эмоционально-экспрессивных значений в переводе, имеют важное научное и практическое значение.

Представленная диссертационное исследование выполнена в рамках Указов Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по коренному повышению статуса и авторитета узбекского языка как государственного языка», Указа от 29 октября 2020 года № УП -6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года», а также Постановлений от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» и от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выводу на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» и в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в указанных документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование диссертации выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I: «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Сравнительное исследование эмотивных выражений в концептуальном и прагматическом аспектах в системе разных языков постоянно привлекает внимание лингвистов. В частности, в области когнитивной лингвистики, лингвокультурологии и прагмалингвистики познанию внутреннего эмоционального мира человека, в том числе сравнительному исследованию эмоций, характерных для различных языковых культур, посвящены работы таких лингвистов, как Н. Дорофеева, С. Воркачев, С. Зайкина, И. Волостных, В. Калинина, Е. Бутенко, Л. Григорова, Ю. Ильин, В. Карасик, Н. Красавский, Ю. Козлова, Ю. Крылов, Л. Кузнецова.³³

³³Дорофеева Н. В. Удивление как эмоциональный концепт (на материале русского и английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар: КГТУ, 2002. – 214 с.; Воркачев С. Г. Культурный концепт и значение. – Москва: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 236 с.; Зайкина С. В. Эмоциональный концепт «Страх» в английской и русской лингвокультурах (сопоставительный аспект): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 188 с.; Волостных И. А. Эмоциональные концепты «страх» и «печаль» в русской и французской языковых картинах мира (лингвокультурологический аспект): Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов: ТГТУ, 2007. – 137 с.; Калинина В. В. Эмоционально-этический концепт SHAME и его когнитивно-дискурсивный потенциал: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2009. – 166 с.; Бутенко Е.Ю. Концептуализация понятия «страх» в немецкой и русской лингвокультурах: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь: ТГУ, 2006. – 198 с.; Григорова Л.Э. Концепт CURIOSITY в английской языковой картине мира: Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск: ИГЛУ, 2013. – 168 с.; Ильин Е.П. Эмоции и чувства. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 783 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 335 с.; Красавский Н. А. Эмоциональные

Исследование концепта «любовь» и его языковой репрезентации в разных языках нашло отражение в работах ряда зарубежных лингвистов, таких как Я. Фальковски, С. Рено, Ж. Форси, Д. Андерсен, И. Волтер, А. Ирилова, В. Муратова, С. Воркачев, Б. Дашиева, Л. Вильмс, Ю. Матвеева, С. Фомина, И. Иванова.³⁴ В узбекском языкознании тема «любви» и смежных с ней концептов затрагивалась в трудах Д. Бузруковой, А. Садуллаевой, М. Таджиевой, Н. Ибрагимовой, Т. Мардиева, С. Каримовой, Б. Абдураззакова, Л. Долиевой, Д. Нарзуллаевой.³⁵

Несмотря на то, что вышеуказанными лингвистами тема «любви» изучалась в сравнительном, лингвокультурологическом, лексикографическом и стилистическом аспектах, недостаточное внимание было уделено языковой реализации любви как её выражения (речевого события) и её прагматическим аспектам.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в

